ULUG‘BEK HAMDAMNING “ MUSULMON” HIKOYASIDA INTERTEKSTUALLIK HODISASINING BADIIY VAZIFASI

Hosiljonova E’zoza No’monjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti
Tel nomer: +998990802501
ehosiljonova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21704183

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste’dodli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Musulmon” hikoyasida intertekstuallik hodisasining o‘rni va yozuvchining badiiy mahorati o‘rganiladi. Zamonaviy o‘zbek nasrida o‘zining tasvir bo‘yog‘iga ega bo‘lgan mohir yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning diniy-axloqiy va falsafiy qarashlariga alohida e’tibor qaratiladi. Yozuvchining individual uslubi haqida fikr yuritiladi. “Musulmon” hikoyasidagi intertekstual birlik, ya’ni epigraf orqali yozuvchi asar mazmun-mohiyatini qay darajada yoritgani manbalar asosida tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Intertekstuallik, epigraf, badiiy mahorat, talmeh, mavzu, g‘oya, tahlil, talqin.

Annotation. This article examines the role of the phenomenon of intertextuality in the short story "Musulmon" by the talented writer Ulug'bek Hamdam, as well as his artistic competence. Special emphasis is placed on the religious, ethical, and philosophical perspectives of the author, who is characterized as a skillful writer with his own distinctive style in contemporary Uzbek prose. The article also discusses the author's individual style. Moreover, the study provides an in-depth analysis of the intertextual element, which is named epigraph, in "Musulmon", and examines how it helps to convey the overall and underlying meaning of the work.
Keywords: Intertextuality, epigraph, artistic skill, allusion, theme, idea, analysis, interpretation.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль явления интертекстуальности в рассказе талантливого писателя Улугбека Хамдама «Мусульманин» и особенности его художественного мастерства. Особое внимание уделяется религиозно-нравственным и философским взглядам Улугбека Хамдама — мастера современной узбекской прозы, обладающего самобытной художественной манерой. Анализируется индивидуальный стиль писателя. На основе научных источников исследуется, насколько посредством интертекстуального элемента — эпиграфа — автор сумел раскрыть содержание и идейную сущность рассказа «Мусульманин».
Ключевые слова: интертекстуальность, эпиграф, художественное мастерство, талмех, тема, идея, анализ, интерпретация.

Intertekstuallik matn tahlilida asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, bugungi kunda adabiyotshunoslikning tadqiq predmetlaridan biriga aylandi. Bu atama fransuz olimasi Y. Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning “Baxtin, so‘z, dialog va roman “ (Kristeva J. Bkhtine, 1967, 239-bet) nomli ilmiy risolasida ilk bor bu atama qo‘llangan va intertekstuallik hodisasiga ta’rif berilgan. Olima intertekstuallik hodisasi, asosan, ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta’kidlab, ko‘proq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urg’u beradi, deya Mahfuzaxon Xomidova o‘zining “Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik” nomli dissertatsiyasida tahlil qiladi. Y. Kristevaning

intertekstuallikka bergan ta'rifi quyidagicha: "Har qanday matn sitatalar mozaikasidan tuzilgan va har qanday matn boshqa bir matn bilan o'zaro aloqada bo'ladi ".

Lug'atlarda esa intertekstuallik tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: " Intertekstuallik bu - matn ma'nosining boshqa matn orqali shakllanishidir. Intertekstuallik alluziya, sitata, plagiat, tarjima, stilizatsiya, parodiya kabilarni o'z ichiga oladi". Bu o'rinda intertekstuallik qanday hodisa ekanligi ta'riflanishi bilan birga, uning tarkibi, turlari hamda u bilan bog'liq tushunchalar ham sanab o'tilgan. Intertekstuallik nazariyasi bilan shug'ullangan N. Pyege-Gro "Введение в теорию интертекстуальности" asarida fransuz olimi Labruyerning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Hamma narsa allaqachon aytib bo'lingan, biz shunchaki kech tug'ildik. Chunki odamlar yetti ming yildan ko'proq vaqt davomida yer yuzida yashab, o'ylashadi". Olim Labruyerning bu fikrlarini intertekstuallik qanday hodisa ekanligini tushuntirishda misol sifatida keltiradi. (M. Xomidova, 2020, 11-bet).

Intertekstuallik terminining lug'aviy ma'nosi shuki, inter - o'rtasida, orasida, teks - matn, ya'ni matn ichida matn kelishidir. Matnlar ichida nafaqat yaxlit butun matn, balki uning parchasi (havola) yoki unga ishora qiluvchi birliklar uchrashi mumkin. Anglashiladiki, matn intertekslar matnlararo shakliy va ma'noviy bo'g'liqlikka xizmat qilib, uning badiiyatini yanada oshiradi.

Intertekstuallik bo'yicha ilmiy ishlar mundarijasiga nazar solsak, Avetova, Andreyeva, Bashkatova, Bushmanova, Voskresenskaya, Gildina, Stepanova, Trostnikov, Barbel, Grubel va boshqalar nasriy hamda nazmiy matnlardagi interteks turlarini tahlil qilishgan. (M. Xomidova, 2020, 15-bet).

Mutaxasislar intertekstuallik konsepsiyasi rus olimi M.Baxtin qarashlarini rivojlantirish, boshqacha aytganda, qayta idrok etish asosida vujudga kelganini ta'kidlaydilar. M. Baxtin adabiyotning mavjudlik qonuniyatlari haqida to'xtalib, har qanday asar o'zida ijodkor voqealigini aks ettirgani holda o'zidan avvalgi va o'ziga zamondosh adabiyot bilan muntazam diologik aloqada bo'ladi, ya'ni adabiyotning mavjudligi intersubyektiv xarakterga ega deb biladi. (D. Quronov, 2013, 120-bet)

Zamonamizning mohir yozuvchisi Ulug'bek Hamdamning ham ko'plab asarlarida intertekstuallik hodisasini uchratamiz. Yozuvchi asarlarida iqtiboslar, epigraflar, muqaddas va mumtoz manbalardan misralar keltirishi nafaqat, asarning ma'no ko'lamini kengaytiradi balki, Ulug'bek Hamdamning badiiy mahoratini ham belgilaydi.

Tahlil qilayotganimiz, Ulug'bek Hamdamning " Musulmon" hikoyasida ham intertekstuallikning bir qator badiiy vazifalariga duch kelamiz. Xususan, dastlab, hikoyaning epigrafiga to'xtaladigan bo'lsak, u Navoiyning shoh bayti bilan boshlanadi:

Kimki, bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Hikoyani o'qir ekanmiz, yozuvchi ustalik bilan asarning butun bir g'oyasi va mohiyatini mana shu hikmatli bayt orqali ifodalaganini anglaymiz. Ushbu bayt Navoiyning " Badoye ul-vasat" devonining 621-g'azali matlasi hisoblanadi. Adabiyotshunos olim Nusratulla Jumaxo'ja g'azal haqida shunday deydi: " Hayratomuz bayt bilan boshlangan g'azal Navoiy ijodiyotining kamolot bosqichi - qarilik lirikasi mahsulidir. Ushbu g'azal birgina matlaning o'zi bilan adabiyot tarixiga kirishga, adabiy e'zozlanishga sazovor. Matlaning qimmati, avvalo, yuksak insonparvarlik g'oyasi bilan yo'g'irilganidadir. Ruhi cho'kkan, dili vayron kimsaning dardini olish, ko'nglini ko'tarish, kayfiyatini chog'lash, unga taskin-tasalli berish hayotning har bir damida har kimning qo'lidan keladigan eng oddiy insoniy ezgulik. Ammo sur'atli va shafqatsiz hayot chorrahalarida aksariyat kishilar bunday savob ishni unutadilar, yoxud uddalay olmaydilar".

Darhaqiqat, qalami o'tkir yozuvchimiz Ulug'bek Hamdam asar qahramoni Husan orqali haqiqiy musulmon obrazini yuqorida keltirilgan shoh bayt bilan e'tirof etadi. Aslida musulmon kim? Musulmon odam qanday bo'lishi kerak? Uning zimmasida qanday

mas'uliyat va vazifalar mujassam? Yozuvchi bu savollarning javobini asar epigrafida chiroyli ifodalaydi.

Ka'baning vayron bo'lishi, so'ng qayta qurilishiga ishora qilish oddiygina badiiy to'qima emas, balki olis tarix haqiqatini g'azalxonga eslatuvchi talmeh san'ati hamdir. Tarixdan ma'lumki, Ka'ba ibodatxonasini turli jamoa vakillari hamkorlik, birlik, ahillikda qayta qurganlar. Ka'bani qayta qurishdagi eng mas'uliyatli vazifa - muqaddas Qora toshni o'z an'anaviy joyiga o'rnatish muammosini Muhammad alayhissalom bajargan va bu ish uning payg'ambarlik salohiyatini dalillovchi muhim belgilardan biri bo'lib qolgan. Shohbayt va tarix qiyosidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, "kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylasa", buzilgan Ka'bani qayta qurishga muyassar bo'ladi. (Sh. Sirojiddinov, 2018, 341-342-betlar). Darvoqea, Ulug'bek Hamdamning keltirgan falsafiy intertexti uning mumtoz adabiyotimizga muhabbati yuqori ekanligiga, diniy-axloqiy qarashlari va tafakkuri sofligiga ishora qiladi.

Ayni misra mazmunan tukr shoiri Yunus Emroning quyigidagi bayti bilan ham hamnafas bo'la oladi:

Ko'ngil - Allohning taxti,
Ko'ngilga Alloh boqdi.
Ikki jahon badbaxti,
Kim dil og'ritar bo'lsa. (Yunus Emro, 2018, 138-bet).

Shuningdek, yana asar qahramoni Husan tilidan: "Kitoblar Sulaymon payg'ambarni qushlar tilini bilgan, deb aytadi, " - jumlasi keltiriladi va ayni parcha ham intertextuallikning yashirin (implicit intertextuality) ko'rinishi hisoblanadi. Bu jumlada muqaddas Qur'on va islom rivoyatlariga ishora (alluziya) mavjud. Ya'ni, Sulaymon payg'ambar qushlar bilan gaplashgani haqidagi Naml surasi voqealiklariga ishora qilinmoqda. Xususan, ushbu suraning 16-oyatida: " Sulaymon (payg'ambarlik va podshohlikda) Dovudga voris bo'ldi va aytdi: " Ey odamlar! Bizga qushlar tili va boshqa narsalar bildirildi. Albatta bu aniq fazlning o'zidir". Ya'ni, Sulaymon (a.s) qushlar tilini ularning o'zlaridek tushunar edi. Uning so'ziga qaraganda tovus: " Diyonatingga yarashsa jazolanursan", - deb, hudhud: " Ey gunohkorlar! Istig'for ayting", - deb, qaldirg'och: " Qilgan yaxshiligingiz o'zingizga qaytur", - deb, quzg'un: " Subhona rabbiyala'lo", - deb, xo'roz: "Ey g'ofillar! Allohni eslang! " - deb, burgut: " Ey Odam bolasi! Xohlaganingcha yasha, oxiri o'lasan! " - deb, bulbul: " Alloh bilan rasuli biluvchiroq", - deb, govkaptar: " O'lim uchun tug'ingiz, vayrona uchun quringiz! " - deb sayrar ekan (Md. Xz) ", - deya ilohiy axborot keltiriladi. (Shayx Abdulaziz Mansur, 2021, 378-bet).

Bu jihatdan yozuvchi keltirgan qushlar obrazining ramziy ma'nosi ham oydinlashadi. Bizningcha, qushlar - " iymon" ramzi. Husanning qalbi tozaligi, niyat va amali tengligi uchun uning qushi hamisha u bilan birga bo'ldi, va aksincha, Hasan xudbinlarcha faqat o'zini o'ylashi, atrofga e'tiborsizligi, so'zi bilan amali bir bo'lmagani sababli uning qushi " ko'kka tik parvoz qilib, moviy ranglarga singib, g'oyib bo'ladi".

Jumladan, qahramonimiz Husan tilidan aytilgan:"… islom - bag'ri keng din. Hatto sig'inib o'tirgan vaqtingda yon-veringda chayon ko'rib qolsang, oldin otiyomonni daf qilib, so'ng namozga qaytishingga izn beradi u ", " Inson bolasining ba'zi narsalardan g'ofil yurgani tuzuk ekan. Ruh haqida bizlarga judayam oz bilim berilganligida ham shunday hikmat yashirin bo'lsa, ajabmas" , akasiga qarab: " Tavba…sening musulmonliging masjidning ichidagina bor, darvoza hatlab tashqariga chiqishing bilan kimligingni bilib bo'lmaydi, Hasan!" (U. Hamdam, 8-bet) jumlalari ham Husanning xarakterini ochishga "ochqich" vazifasini bajaradi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, hikoya matniga nazar tashlasak, qo'shnining bolasi bir zumlik yumushga yordam so'rab chiqqanida unga yordam berishi, otasi betobligida uning diydoriga oshiqishi, do'pposlanayotgan odamni

ko‘rganda uni qutqarishi, oyog‘i lat yegan qariyani kasalxonaga olib borishi - barchasida uning haqiqiy musulmonga xos harakatlari badiiy ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek Hamdamning “ Musulmon” hikoyasi badiiyati va mazmuni yozuvchi tomonidan keltirilgan intertextlar orqali yana ham oydinlashadi va bu bugungi kun kitobxonini muqaddas kitoblar va mumtoz manbaalar ilmiga muhabbatini oshiradi, ularni o‘rganishga yo‘naltiradi. Haqiqatan, adabiyotshunos olim Bahodir Karim aytganidek, Ulug‘bek Hamdam nasriy, nazmiy, adabiy-tanqidiy asarlari bilan, ulardagi teran his tuyg‘ulari, keng falsafiy fikrlari, adabiyot ilmiga foydali mulohazalari bilan, eng muhimi, adabiyotga sadoqati va fidoyiligi bilan adabiyot muhiblarining, ilm ahlining ishonchini qozondi. (B.Karimov, 2013, 2-bet).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahodir Karimov. Ulug‘bekning dil izhori. (2013). (2-bet).
2. Дилмурод Қуронов. Адабиётшунослик луғати . (2013). (120- бет).
3. Kristeva J. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / J.Kristeva // Critique. (1967). (239-bet).
4. Mahfuzaxon Xomidova. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. (2020). (11-bet).
5. Ulug‘bek Hamdam. Musulmon. (2013). (8-bet).
6. Yunus Emro. Nechun yig‘larsan, ey bulbul? (2018). (138-bet).
7. Shayx Abdulaziz Mansur . Qur’oni Karim. (2021). (378-bet).
8. Shuhrat Sirojiddinov. Navoiy g‘azaliyoti talqinlari. (2018). (341-342- betlar).